



QASHQADARYO-SURXONDARYO BAXSHI IJROCHILIK AN'ANALARI

Azizov Orifjon Ganiyevich

Termiz Davlat Universiteti

“Musika ta’limi” kafedrası katta o’qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-February 2024 yil

Ma’qullandi: 25- February 2024 yil

Nashr qilindi: 29- February 2024 yil

KEY WORDS

Musika madaniyati, baxshichilik, san’at, dostonchilik, shoir, an’ana, do’mbira.

ABSTRACT

Mazkur maqolada musika madaniyatimizda Qashqadaryo-Surxondaryo baxshi ijrochiligining o’rni va an’analari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Doston yirik epik janr bo’lib, doston aytishda har viloyat, vohaning o’ziga xos an’analari bo’lganligi kabi Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik maktabining o’ziga xos maktablari shakllangan. Surxondaryo-Qashqadaryo musika uslubida dostonchilik ayrimlarining o’ziga xoslik jihatlari dostonlar, ya’ni baxshi- shoirilar qaysi cholg’u jo’rligida, qanday dostonlar ularning repertuaridan o’rin olganligi va qaysi vaqtlarda aytilishi xususiyatlari bilan boshqa maktablardan farq qiladi. Bu vohada doston ijrochilari shoir, yuzboshi yoki baxshi deb ataladi.

Surxondaryo va Qashqadaryo dostonchilik an’analarining izchil rivojlanishi bugungi kunlarda ham tizimli tarzda davom etmoqda. Shuning uchun ham bu maktab bugungi kunda ham o’z an’analarini yo’qotmay kelmoqda. Doston adabiy- musiqiy asar bo’lib, uning tarkibida nasriy va she’riy ohang qismlari bo’lib, ular mazmunan o’zaro mushtarak bo’lishi tabiiy holdir. Doston aytuvchi baxshilar san’atida so’z ustasi, qo’shiq kuylovchi va soz (do’mbira) cholg’u birlashgan bo’ladi. Binobarin baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so’zlash orqali hikoya qilsalar, she’riy bo’laklarni qo’shiq shaklida maxsus ichki (bo’g’iq) ovoz bilan qo’shiq aytib kuylaydilar. Bunda do’mbira sozidan jo’rnavoz sifatida foydalanadilar.

Dostonlarni mavsumi Qashqadaryo va Surxondaryo asosan kech kuzda, qishloq ahli dehqonchilik bilan bog’liq yig’im-terim ishlarini tugatganidan so’ng boshlanib, to erta bahorga qadar davom etadi. Odatda baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalari o’tkazish uchun xonadonlardan biriga taklif etiladi. Bu xonadonda mahalla ahli, qo’ni- qo’shnilar ham yig’ilishib baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo’lgan. Bundan tashqari baxshilarni oilaviy bayram, to’y marosimlari va boshqa sayigl, hasharlarda, bayram tantanalarida ham baxshi- doston aytuvchilarni etishgan va bu odat tusiga kirgan.

Xalq og’zaki ijodida dostonlar nazm va nasrda bo’ladi. Jahon mumtoz adabiyotida alohida doston janri mavjud bo’lib, ular o’zining keng qamrovlilik, hajmining kattaligi, ko’tarib

chiqqan ijtimoiy, siyosiy, ahloqiy muammolari, syujetining sertarmoqliligi, dramatizmining o'tkirligi, personajlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Bunday dostonlar markazida jamiyat va xalq taqdiri, jamiyat, xalq va qahramonlar taqdiri bir butunlikda yaxlit tasvirlanadi. Xalq dostonlarida xususan, Qashqadaryo- Surxondaryo baxshilari tomonidan kuylanadigan "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar, "Erali va Sherali", "Oftobxon", "Gulnor pari", "Shirin bilan Shakar", kabi dostonlarda yaxshilik bilan yomonlik, mardlik, vatanni sevish, chin sevgi va xiyonat, halollik bilan manqurtlik o'rtasidagi kurash badiiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Bunday dostonlar qahramonlarida vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do'stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g'oyalari mujassamlashadi.

Xalq dostonlarida (*Go'ro'g'li, Alpomish, Avazxon kabi*) yuksallashtirish, mubolag'a tasvir ustun bo'ladi. Masalan, dostonlarda turli afsonalar, asirlar, hikoyatlar, dev parilar (*Go'ro'g'li, Avazxon, Ravshanxon va Zulhumor*), Xizr, ajabtovur otlar (*G'irkok, Boychibor kabi*), shuningdek sehr jodu ko'p ishlatiladi. Bularning barchasi xalq orasida tarqalgan diniy-mantiq mazmunidagi qarashlar najitasi bo'lib, baxshilar tomonidan dostonlarni xalq tomonida qiziqish bilan tinglanishga bo'lgan ahamiyatini oshirish maqsadida qo'llangan.

Xalq baxshilari an'anaviy uslubda (*baxshi, dostonchi, xalq shoirlari*), dutor, do'mbira ayrim holatlarda boshqa cholg'ular jo'rligida ijro etib kelingan va bu an'ana hozirgi vaqtda ham o'z qimmatini saqlab kelayotganligi diqqatga molikdir. Xalq folklorida mavjud bo'lgan dostonlar bilan yozma adabiyotdagi mavjud dostonlar shakl-shamoli jihatidan bir xil ko'rinishda bo'lsada, yozma adabiyotdagi dostonlar o'quvchining dunyoni o'ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o'z fikr-g'oyalari bilan voqea-hodisalarni bayon qilish uslubi bilan farqlanadi.

O'zbek dostonchilik ijodi, xususan Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik an'analari asrlar davomida o'sib, sayqal topib, avloddan-avlodga "ustoz-shogird" an'anasi orqali o'tib, shakl va mazmun jihatdan rang-baranglashib kelgan. Hozirda xalqimiz ma'naviyatidan muhim o'rin olgan. "Alpomish", va "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida o'zbek dostonchiligining taraqqiyot yo'llari, rivojlanish davrlarini ko'rish mumkin.

Xalq og'zaki poetik ijodidagi qadimiy an'ana bo'lib, dastlabki davrlarda qo'shiq shaklida, musiqa asbobisiz kuylanadigan asar sifatida ma'lum bo'lgan. Keyinchalik (X-XI asrlar) do'mbira jo'rligida aytiladigan turlari yuzaga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago'ylar ko'payib borgan sari ustoz-shogird an'analari kela boshlagan. Natijada taxminan XV-XVI asrlarda dostonchilik maktablari shakllana boshlagan. XVII- XVIII asrlarga kelib doston ijrochiligida jiddiy ko'tarilish bosqichi bo'lib, XIX-XX asrlar esa uning eng rivojlangan davri bo'lganligi mutaxassis folklorshunoslar tomonidan ma'qullanadi. Manbalarda qayd etilishicha bu davrda baxshi- dostonchilik shu qadar ommalashadiki, bu davrda ijod etgan baxshilar ijodida 150 san ortiq xalq dostonlari bo'lib ularni Tilla kampir, Sulton kampir, Sholmon baxshi, Bo'ron shoir, Samarqandda Ergash Jumanbulbul, Jassoq baxshi, Xorazmda Xonimjon xalifa, Buvi shoir, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo-Surxondaryo vohalarida Suyib baxshi, Amin baxshi Qo'ldosh bulbul, Sulton Murod baxshi, Qurbonbek baxshi, Sherka yuzboshi kabi namoyondalari ijod qilishgan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Polkan shoir, Islom shoir Nazar o'g'li, Saidmurod Panoh og'li, Berdi baxshi, Abdulla Nurali o'g'li, O'mir shoir, Bola Baxshi (*Xorazm*) Ahmad baxshi kabi yetakchi yetakchi san'atkorlar o'zlariga zamondosh boshqa viloyatlar baxshilari bilan birgalikda bu epik an'anani davom ettirdilar. Dostonlarda qat'iy tartibga rioya qilingan. Doston eshitish

uchun maxsus kechalar uyushtirilga, to'y- hashamlar baxshilarsiz o'tmagan. Tinglovchilar baxshilarni to'rga o'tkazib o'zlari uning atrofida jo'r bo'lib o'tirishgan. Baxshi do'mbirasini sozlab tinglovchilarga "Nima aytay" termasibilan murojaat qilgan. "Kunlarim", "Do'mbiram" kabi termalarni aytib, tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb etgan. Baxshi doston ijrosida boshida dostondagi har bir tasvirga mos so'z topib, o'sha so'zlarga monand hatti-harakatlar qilgan. Tinglovchilarni qiziqishlari bilan o'zi ham tobora avjiga chiqib, jo'shib kuylagan. Iqtidorli baxshi-shoirlar ikki, uch kechada, hatto oylab doston kuylay olganlar. Masalan, Shernazar Berdinazar og'li yetti kecha davomida doston ayta olganligi haqida aniq ma'lumotlar bor. Ba'zi dostonlarning hajmi ham ikki-uch kecha mutassil kuylashni taqozo etgan. Dostonchi (baxshi-shoir) odatda voqea eng qiziq joyiga kelganda kuylashni to'xtatib, tanaffus qilgan. Bu esa tinglovchilarni qiziqishlarini yanada oshirgan. Ko'pincha maxsus tashkil etilgan doston kechalarga ikki-uch baxshi taklif etilgan. Bu hollarda dostonchilar o'zaro tortishuvlarga kirishganlar, bir- birlarining iqtidorini, so'zdagi chechanligini, soz chalish bobidagi mahoratini sinaganlar. Tinglovchilar esa ularga baho berishgan. Xalq olqishini ololmagan dostonchi davradan chiqib ketgan.

Doston aytim an'anasi hozirgi kunda ham ayniqsa Qashqadaryo- Surxandaryo, Qoraqalpog'istonda yuqori saviyada davom etmoqda. Endilikda doston ijrochilarini Xalqaro, respublika tanlovlarida ishtirok etishlari, turli konsert zallarida, tadbirlarda, katta sayil va hashamlarda, radio va televideniya uyushtirilgan olimpiada va tanlovlarda o'z mahoratini keng tomoshabinlar oldida namoyish etib kelmoqdalar.

O'zbek folklorshunosligida hozirgi paytda ko'plab dostonchilik maktablari mavjud. Ular ijod repertuari, ijro etish uslubi, ma'lum ijod tamoyili usullariga ko'ra bir- biridan ma'lum darajada farqlanadilar. Masalan, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanining Qamay qishlog'i bilan bog'liq Qamay dostonchilik maktabi mavjud bo'lib, bu maktab Dehqonobod va G'uzor tumanlari atrofida yashovchi Abdulkarim Shuyruq, Mulla Xolnazar, Bozor Sherqul o'g'li, Xazratqul baxshi Hudoyberdiyev kabi 60 ha yaqin baxshilarni birlashtirgan. Ular Shahrisabz dostonchilik maktabi bilan birgalikda ijodiy hamkorlikda bo'lib kelgan. Qamay dostonchilik maktabi vakillari xalq dostonlarining lirik yo'nalishiga alohida e'tibor berishgan. Ular poetik shakllar taraqqiyotida Sherobod dostonchilik maktabi vakillariga nisbatan ilgarilab ketganlar. Qamay dostonchilaridan "Nuralining yoshligi", (1972 yil, 1977), "Xonimoy" dostonlari yozib olingan (1983).

Ma'lumki xalqimizning o'zligini belgilovchi eng asosiy xususiyatlaridan biri ona tilimiz bo'lsa, Qashqadaryo-Surxodaryo vohasining so'zlashuv tili uning dostonlarida yorqin va jozibali tarzda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, baxshi- dostonchilarning turli konsert, radio-televideniya chiqishlarida buni aniq ko'rishimiz mumkin. Xalq baxshisi Shoberdi baxshi Murodovning doston ayrimlarini ijro etish uslubi va so'zlarni talaffuzida o'zgacha musiqiy ohang doston mazmun mohiyatiga sinxron tarzda uyg'unlashib ketadi. Surxon vohasidagi baxshi-shoirlar doston ijrochiligida qo'shiqlarni bo'g'iq ovozda o'ziga xos shevada kuylanadi. Bu hududdagi dostonchilik san'atida do'mbira sozi o'zining tasnifini saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarhal sahifalari. -Xorazm, 1999.-51 b.
2. Jo'raev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. -T.:«Fan», 2001.
3. X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov. O'zbek xalq og'zaki ijodi.-T.: O'qituvchi, 1980.
4. E.Musurmonov. O'zbek folklori materiallarini to'plashga oid metodik tavsiyalar. -S.:

SamDU, 2005.

5. Bulbul taronalari. Ergash Jumanbulbul o'g'lining doston va termalari. 5tomlik. –I.: Fan, 1971-1973.

6. Fozil Yo'ldosh o'g'li. Tanlangan asarlar. –T.: O'zdavnashr, 1949.

7. Karamatov F. M. Xalq musiqasi. "O'zbek musiqasi tarixi" kitobidan. (Tuzuvchi Salomova T. E) –T: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991 y.



INNOVATIVE
ACADEMY